



UNIVERSITÄT
HOHENHEIM



**EKOLOGIYA,
ATROF MUHITNI ASRASH VA
YASHIL MAKON: MUAMMO,
YECHIMLAR VA NATIJALAR
MAVZUSIDAGI XALQARO
ILMIY-TEXNIK ANJUMAN**

TO'PLAMI

QARSHI 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

“EKOLOGIYA, ATROF MUHITNI ASRASH VA
YASHIL MAKON: MUAMMO, YECHIMLAR VA
NATIJALAR”

MAVZUSIDA XALQARO ILMIY-AMALIY
ANJUMANI MATERIALLARI
TO‘PLAMI

2025-yil 30-31 may

Qarshi-2025

10. Ашуров Б.Н., Меликулов У.А., Мирсаатова Ш.Х., Умедов Ш.Х. Определения состава смазочной добавки М-СД // Республиканская научно-техническая конференция «Нефть ва газ соҳасидаги замонавий инновацион технологиялар. – Ташкент, 2023. - С. 114-115.

11. Акилов Ж., Газиев С.С., Ёров У.Б. Очистка ствола скважины от выбуренной породы. – Газовая промышленность. – М.: 2001. – с. 67-68.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KADASTR MA'LUMOTLARI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISH TIZIMINI BAHOLASH.

Aliqulov G'.N. - Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti

Toshpulatov J.S. - Qarshi davlat texnika universiteti magistri

Nortoshov A.G'. - "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti talabasi

АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada kadastr ma'lumotlari asosida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish tizimini baholash hususida so'z yuritilgan.

Kalit so'z: Qishloq xo'jaligi yerlari, yer fondi, tuproq unumdorligi, tizim, unumdorlik, qonunchilik

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается оценка системы использования сельскохозяйственных земель на основе кадастровых данных.

Ключевые слова: Сельскохозяйственные земли, земельный фонд, плодородие почвы, система, плодородие, законодательство

ABSTRACT

This article examines the assessment of agricultural land use systems based on cadastral data

Keywords: Agricultural land, land fund, soil fertility, system, fertility, legislation

Kirish. Qishloq xo'jaligida muljallangan yerlardan foydalanish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan har qanday chora tadbirlar tabiiy muhitga tom ma'noda qay darajada ta'sir etadi. Bu holat uni ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik ahamiyatini va yerdan foydalanish muammosini doimiy dolzarb ekanligidan darak beradi. Iqtisodiy islohatlarni amalda oshirilishi natijasida yer munosabatlarini o'zarishi, yerdan foydalanish mexanizmlariga iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik xarakterlardagi yangi omillarning, shu jumladan yerlarni kadastr baholash ishlarining qo'shilishi sharoitida yanada kuchayadi.


Tadqiqot obyekti. Obyekti sifatida O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligida mo'ljallangan yerlar

Natijalar va muhokama. Aholining oziq-ovqat maxsulotlariga doimiy o'sib borayotgan talablarini qondirish yerdan foydalanish tizimining asosiy maqsadi hisoblanadi. Uning obyekti – qonunchilikda belgilangan yer egaliklari va yerdan foydalanuvchi tashkilotlarning yer uchastkalari hisoblanadi. Jamiyatda

yerdan foydalanishni boshqarishni amalga oshiradigan davlat, o'zining maqsadli mohiyati bo'yicha yer uchastkalaridan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar yerdan foydalanish subyektlaridir.

Qishloq xo'jaligida muljallangan yerlarning unumdorligini oshirish bo'yicha hududlar kesmida yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligi oqibatida tuproq unumdorligi sezilarli darajada pasayib bormoqda. Buning natijada aksariyat qishloq xo'jaligi yerlari degradatsiyaga uchramoqda. Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan, yer-suv resurslarining bozor qiymat baholash tizimi yetarli darajada tashkil qilinmagan. Qishloq xo'jaligi yerlarini kadastr baholashning mavjud uslubi bugungi kun talablariga moslashtirish lozim. Noqishloq xo'jaligi yerlarini kadastrli qiymat baholash uslubi mavjud emas, Umumlashtirib aytganda qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni tizimsiz ekanligidan dalolat beradi.

Har qanday tizim bir-biriga bog'liq bo'lib, ular bir nechta kichik tizimlardan iborat bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qishloq xo'jaligi yerdan foydalanish tizimi tabiatdan foydalanish tizimining kichik tizimi sifatida qaraladi hamda ushbu kichik tizim sifatida boshqarilish xususiyatiga egadir (1-rasm).



1-rasm. Yerdan foydalanish tizimi

Ushbu (1-rasm), rasmdan yaqqol ko'rinadiki, tabiatdan foydalanish tizimi tarkibida yerdan foydalanish kichik tizimi alohida o'ringa egadir, chunki tabiatning har qanday boshqa kichik tizimlaridan foydalanish, birinchi navbatda, ma'lum yer maydonidan foydalanish bilan bog'liqdir. Shu sababli, yerdan foydalanish kichik tizimi tabiatdan foydalanish tizimining markaziy bo'g'inini, tayanch nuqtasini tashkil etadi va boshqa resurslarni bir-birlari bilan bog'lab turuvchi makon hisoblanadi.

Xulosa. Respublikamiz iqtisodiyotini, jumladan qishloq xo'jaligini har tomonlama rivojlantirishda yerlarni kadastr baholash ishlarining ahamiyati kattadir, negaki sohani yanada yaxshilash bu yerda tarqalgan tuproqlar tabiiy unumdorligini obyektiv ravishda qiyosiy baholash va shu ma'lumotlar hamda ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlari, shuningdek yer maydonlarining

texnologik sharoitlari asosidagi qishloq xo'jaligi yerlarini iqtisodiy (normativ) baholash ishlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1) Abdullayev Z. Yer resurslari qiymatini baholash jarayonlarini modellashtirish. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent, 2013, 148b.
- 2) Турсунов Б., Ермолик Е. Организационно-управленческие аспекты оценочной деятельности. Ж. Экономика и класс собственников., 2012, № 3. с. 37-38.
- 3) Abdullayev Z.S. Yer resurslari qiymatini baholashning axborot ta'minoti asoslari. T., Fan, 2018, 78b.
- 4) Altiyev A.S. Yer resurslaridan foydalanish tizimini erkinlashtirishning iqtisodiy mexanizmi. Toshkent, Fan, 2009, 248b.
- 5) Altiyev A.S. Yerdan foydalanish iqtisodiyoti. Darslik. Toshkent, TIQXMMI MTU, 2022, 264b.
- 6) Babajanov A.R., Raxmonov Q.R., G'ofirov A.J. Yer kadastr. Darslik. Toshkent, TIMI, 2012, 212b
- 7) Babajanov A.R., Ro'ziboyev S.B., Kamalova D. Yer kadastr, I-qism, T., TAQI, 2015, 122b.
- 8) Babajanov A.R., Ro'ziboyev S.B., Kamalova D. Yer kadastr, II-qism, T., TAQI, 2015, 128b.

CONSERVATION AGRICULTURE SEEDING MACHINES: A REVIEW OF CLIMATE-SMART TECHNOLOGIES

Sobirov K. - Master's Student, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers (TIAME), Tashkent, Uzbekistan

Abstract. Conservation Agriculture (CA) represents a paradigm shift towards sustainable farming systems that address climate change challenges while maintaining agricultural productivity. This review examines the technological innovations in seeding machines designed for conservation agriculture, focusing on no-till planters and direct drills. The analysis reveals that specialized CA seeding equipment reduces fuel consumption by up to 75%, minimizes soil erosion by 80-90%, and enhances soil carbon sequestration. These machines incorporate advanced features including precision coulter systems, residue management mechanisms, and intelligent depth control technologies. The environmental benefits include reduced greenhouse gas emissions, improved soil health, and enhanced climate resilience. Economic analysis demonstrates long-term cost savings despite higher initial investments. The review concludes that CA seeding technologies are essential for sustainable agricultural transformation in the era of global climate change.

Keywords: *Conservation agriculture, no-till seeding, climate change adaptation, soil conservation, sustainable agriculture, precision farming*

Introduction